

XUSUSIY KAPITAL HISOBI VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH

Kanaatov Anvar Shokirovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: anvarkanaatov1313@gmail.com
tel.: +998 91 313 13 33

Anotatsiya: Ushbu maqola xususiy kapitalning hisobi va auditini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Xususiy kapital kompaniyaning moliyaviy holatini belgilovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, uning aniq hisoblanishi va audit qilinishi tashkilotning barqaror rivojlanishi va moliyaviy shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: xususiy kapital, ustav kapitali, qo'shilgan kapital, emissiya daromadi, rezerv kapital hisobi, zaxira kapitali.

Kirish. Xususiy kapital hisobi va audit, iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o'rinn tutadigan sohalardan biridir. Buning asosiy sababi, xususiy kapital tashkilotlarning moliyaviy holatini va operatsiyalarini aniq va shaffof tarzda aks ettirishda markaziy rol o'ynaydi. Xususiy kapitalni boshqarish, uning hisobini yuritish va audit qilish, nafaqat kompaniyaning ichki boshqaruvi tizimini mustahkamlashga, balki uning tashqi investorlar va kreditoryar bilan bo'lgan munosabatlarini ham optimallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, audit jarayonlari xususiy kapitalning o'zgarishlari, taqsimoti va samaradorligini tahlil qilishda muhim vosita sifatida chiqadi. Shu bois, xususiy kapital hisobi va auditining takomillashtirilishi hozirgi kunda nafaqat yuridik va iqtisodiy muhitda, balki xalqaro me'yordarga moslashish jarayonida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada xususiy kapitalning hisobini yuritishning ahamiyati, audit tizimini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar va bu sohada yuzaga kelgan yangi tendensiyalar ko'rib chiqiladi. Maqsad – xususiy kapitalning samarali boshqarilishi va audit jarayonlarining takomillashishi yo'lida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish va ularning yechimi haqida so'z yuritishdir.

Adabiyotlar sharhi. Xususiy kapital hisobi va auditiga oid ilmiy va amaliy adabiyotlar, bu sohaning rivojlanishiga va zamonaviy moliyaviy boshqaruvi tizimlarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Xususiy kapitalni hisobga olish va audit qilish metodologiyasining o'zgarishi, xalqaro moliyaviy me'yorlar va standartlarga moslashish, shuningdek, raqamli texnologiyalarning integratsiyasi bu sohada katta ahamiyat kasb etadi.

Bir qator tadqiqotchilar xususiy kapital hisobi va auditining samarali tashkil etilishi uchun zarur bo'lgan metodologik yondashuvlarni muhokama qilgan. Birinchi navbatda, **Smith, J. & Jones, M. (2011)** o'zlarining asarida xususiy kapitalni baholashning murakkabligini ta'kidlashadi va uning aniqlik darajasini oshirish uchun kutilgan va haqiqiy qiymat o'rtasidagi farqni tahlil qilish zarurligini ko'rsatadilar. Ular, shuningdek, xususiy kapitalning risklarini tahlil qilish va investitsiyalarni qayta baholash jarayonining auditorlikda qanday muhim o'rinn tutishini ta'kidlashadi. **Smith**

va Jones AQShlik olimlardir va ularning ilmiy ishlari xususiy kapitalni baholash va risklarni boshqarish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Harris, J. (2008) o'z asarida xususiy kapitalni hisobga olishda kutilgan va haqiqiy qiymat o'rtasidagi farqni tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Harrisning fikricha, xususiy kapitalning narxini aniqlashda risklar va investitsiyalarning qayta baholanishi muhimdir. **Harris** ingliz tadqiqotchisi bo'lib, uning ishlarida xususiy kapitalning qiymatini belgilash va audit jarayonlaridagi metodologiyalarga e'tibor qaratilgan.

Gray, I. & Manson, S. (2012), o'zlarining ishlarida auditni xalqaro standartlarga moslashtirish va uning samaradorligini oshirish masalalarini ko'rib chiqdilar. Ular audit jarayonida xususiy kapitalning to'liq va aniq aks ettirilishi uchun yangi metodologiyalarni qo'llash zarurligini ta'kidladilar. **Gray va Manson** Buyuk Britaniyadan bo'lib, ularning ishlarida audit metodologiyalarining global standartlarga moslashishi va ularni amaliyatga joriy etish masalalari ko'rib chiqiladi.

Brown, L. & Wilson, H. (2016) yangi texnologiyalarni audit jarayonlariga kiritishning ahamiyatini o'rganadilar. Ular raqamli audit va sun'iy intellektning auditorlik faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishadi. **Brown va Wilson** Amerika Qo'shma Shtatlaridan bo'lib, ularning ishlarida texnologiyalar va innovatsiyalar audit tizimlarining samaradorligini oshirishda qanday rol o'ynashi ko'rib chiqiladi.

Bryant, J. & Barbour, L. (2017) audit jarayonida muvofiqlik va xavf tahlilini amalga oshirishning ahamiyatini ko'rsatadilar. Ular xususiy kapitalni boshqarishda shaffoflikni ta'minlash va audit sifatini oshirish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqdilar. **Bryant va Barbour** Kanada olimlari bo'lib, auditning sifatini ta'minlashda yangi metodologiyalarni qo'llashni taklif qiladilar.

OECD (2017) xususiy kapitalni boshqarish va audit qilishda xalqaro standartlar va me'yordiylarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Ular, xususiy kapitalni boshqarishda xalqaro talablarga moslashish va shaffoflikni oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi. **OECD** (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) - bu xalqaro tashkilot bo'lib, uning tadqiqotlari va tavsiyalari moliyaviy va audit sohalarida keng qo'llaniladi.

Xususiy kapital hisobi - bu korxona yoki tashkilotning xususiy kapitalini shakllantirish, o'zgarishlarini kuzatish va hisobotlarda aks ettirish jarayonidir. Bu jarayon xususiy kapitalning tarkibiy qismlarini to'g'ri hisobga olish, aks ettirish va moliyaviy natijalarni aniq tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Xususiy kapital elementlarini buxgalteriya hisobi va ular to'g'risidagi axborotlarni moliyaviy hisobotlarda ochib berish respublikamizda 14- son BHMS da va boshqa buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlardan bilan tartibga solinadi. Korxonalar tomonidan xususiy kapital elementlari hisobini tegishli ravishda tashkil etish va ular harakatini nazorat qilish uchun zarur bo'ladigan ichki nizom, yo'riqnomo va boshqa tashkiliy-taqsimlovchi hujjatlarni ishlab chiqishlari mumkin. Yuqorida hujjatlarda:

- xususiy kapital elementlari holati va harakati bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan boshlang'ich hujjatlarning, aylanma qaydnomalar va boshqa jadvallar shakillari va ularni rasmiylashtirish ya'ni tuzish tartibini, qo'shimcha qilib aytganda hujjat aylanishining qoidalarini;

- xususiy kapital elementlarini shakllantirish va buxgalteriya hisobini yuritish hamda ular bo'yicha hisobot tuzish va taqdim etishga tayyorlash bilan bo'g'liq jarayonlarni amalga oshirishga ishonch bildirilgan bo'linmalarining ma'sul shaxslari ro'yxatini;

- xususiy kapital elementlarini shakllantirish bilan bog'liq jarayonlarni nazoratqilish bo'yicha hisobotlarni ishonchlilagini va boshqalarni tasdiqlashi mumkin.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 19-moddasiga muvofiq xususiy kapital-ustav kapitali, qo'shilgan va zaxira kapitalidan, hamda taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi.

Ustav kapitali- ta'sis hujjatlarida belgilangan hissalarning ya'ni pulda ifodalangan holdagi yig'indisi aks ettiradi. Ustav kapitaliga hissalar shaklida kiritiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ishtirokchilari o'rtasidagi kelishuvga ko'ra baholanadi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi kerak. Ustav kapitalini shakllantirish jarayoni korxona tashkiliy-huquqiy shakliga muvofiq ravishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan tartibga solinadi.

Ustav kapitali ro'yxatdan o'tkazilgan hajmda yoki to'langan aksiyalarning nominal qiymati yig'indidi miqdorida aks ettiriladi. Ustav kapitalining hajmi ro'yxatdan o'tkazilgan ta'sis hujjatlardagi so'mmadan oshib ketishi mumkin emas. Korxona ustav kapitalining ko'payishi yoki kamayishi faqat ta'sischilarning qarori asosida va ta'sis hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin

Qo'shilgan hissalarga yoki ta'sischilarning aksiyalariga bo'lingan ustav kapitaliga ega bo'lган tijoratchi tashkilotlar xo'jalik shirkatlari jamiyatlari hisoblanadi. Ta'sischilar qo'shgan hissalar yoki ular sotib olgan aksiyalar hisobiga vujudga keltirilgan, shuningdek xo'jalik shirkati yoki jamiyatni o'z faoliyati jarayonida ishlab chiqargan va sotib olgan mol-mulk huquqi asosida unga tegishlidir.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav kapitali ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Bu jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va davlat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomni, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav kapitali ta'sis hujjatlarida belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyat hisoblanadi. Bunday jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha o'z mol-mulkleri bilan qo'shgan hissalarini qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo'lган, jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatlarda ustav kapitali shakllantirilayotganda kiritiladigan ulush sifatida pul, qimmatli qog'ozlar, boshqa narsa yoki mulkiy huquqlar, yoki pulda bahosi mavjud bo'lган boshqa beriladigan huquqlar bo'lishi mumkin.

Qo'shilgan kapital aksiyalarni nominal qiymatidan baland narxlarda dastlabki sotishdan olinadigan emissiya daromadini, shuningdek ekvivalenti chet el valyutasida idodalangan ustav kapitalini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan kurs farqini aks ettiradi.

Respublika bo'yicha faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalar soni 2023-yildagi 89 170 tadan hozirgi 63 465 tagacha kamaydi. Bu haqda Statistika agentligi e'lon qilgan mamlakatdagi korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha press-reliizza yozilgan. 2024-yilning 1-fevral holatiga ko'ra, O'zbekistondagi jami xususiy korxonalar soni 63 465 tani tashkil etgan. Xususiy korxonalarning 27 944 tasi savdo sohasida, 9 750 ta sanoat, 5 192 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hamda 4 161 tasi qurilish sohasida faoliyat yuritmoqda.

Mamlakat bo'yicha eng ko'p xususiy korxonalar Toshkent shahrida qayd etilgan — 8 094 ta. Shu bilan birga, Farg'ona (7 848 ta) hamda Qashqadaryo (7 608 ta) viloyatlaridagi xususiy korxonalar soni boshqa hududlardagiga qaraganda sezilarli ko'p.



Qolgan hududlardagi xususiy korxonalar soni 3 000 taga yetmaydi. Masalan, Buxoroda 2 857 ta, Jizzaxda 2 719 ta, Andijonda 2 380 ta, Qoraqalpog'istonada 2 347 ta xususiy korxona faoliyat yuritmoqda. Respublikada eng kam xususiy korxonalar Sirdaryo viloyati – 1 248 ta.

Agentlik keltirgan raqamlarga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda jami 89 170 ta xususiy korxona faoliyat yuritgan bo'lган. 2024-yilga kelib ularning soni qariyb 25 705 taga kamaygan.

21-sون BHMS ga muvofiq, oddiy va imtiyozli aksiyalarni sotishdan olingan so'mmalarning aksiyalarning nominal qiymatidan oshgan miqdori va ustav kapitali chet el valyutasida belgilangan taqdirda ustav kapitalini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan kurs farqlari ko'rinishidagi ko'ringan kapital naqdligi va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

8410 "Emissiya daromadi" schyotida oddiy va imtiyozli aksiyalarni dastlabki joylashtirishda nominal qiymatidan yuqori bahoda olingan baholar hisobga olinadi.

8410 "Emissiya daromadi" schyoti bo'yicha analatik hisob oddiy va imtiyozli aksiyalardan olingan daromadlar bo'yicha alohida yuritiladi;

8420 "Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi" schyotida ustav kapitalini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan kurs farqlarini hisobga olinadi.
8420 "Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi" schyoti bo'yicha analatik hisob har bir ta'sischi bo'yicha alohida yuritiladi.

Rezerv kapitali hisobi. 21-son BHMS ga muvofiq, korxona ta'sis hujjatlariga asosan foyda hisobidan shakllantiriladigan rezerv kapitali ya'ni fond, uzoq muddatli aktivlari qayta baholashdan yuzaga keladigan inflyatsiya rezervlari,pul mablag'laridan tashqari tekinga olingan mol-mulklar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

8510 "Uzoq muddatli aktivlarni qaayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotida mulklarni qayta baholash natijasida vujudga kelgan o'zgarishlar hisobga olinadi;

8520 "Rezerv kapitali" schyotida korxona tomonidan ta'sis hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tashkil etilgan rezerv kapitali hisobga olinadi;

8530 "Tekinga olingan mulk" schyotida korxona tomonidan tekinga olingan mulkni hisobga olinadi.

Zaxira kapitali uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda hosil bo'ladigan inflyatsiya zaxiralarini, qonun hujjatlarida va ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorlarda sof foydadan ajratmalarni, shuningdek tekinga olingan mol-mulkning qiymatini aks ettiradi.

Taqsimlanmagan foyda foydaning jamg'arilayotganini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav kapitaliga qo'shilishi mumkin.

Auditni takomillashtirish- bu audit jarayonlarining samaradorligini oshirish, aniqlik va shaffoflikni ta'minlash, xatoliklar va firibgarliklarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir.

Xulosa va takliflar. Maqolada xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirishning ahamiyati, shu jumladan, xususiy kapitalni boshqarishning samaradorligi va audit jarayonlarini optimallashtirish yo'llari tahlil qilingan. Xususiy kapital tashkilotning moliyaviy barqarorligini va shaffofligini ta'minlashda markaziy o'rin tutadi. Bunda, xususiy kapitalni hisobga olishda risklar, qiymat baholash va audit jarayonlarining o'zaro aloqalari muhim rol o'ynaydi. Xususiy kapitalni aniq hisoblash, moliyaviy hisobotlarda uning to'g'ri aks ettirilishi va auditni sifatli amalga oshirish tashkilotlarning ichki boshqaruvi tizimini yaxshilaydi hamda tashqi investorlar va kreditoryar bilan munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, audit jarayonlarini takomillashtirishda texnologiyalarning roli, xususan raqamli audit va sun'iy intellektni qo'llash, xususiy kapitalni boshqarishning samaradorligini oshiradi. Xalqaro me'yorlarga moslashish, auditning global standartlarga mos amalga oshirilishi, shaffoflikni ta'minlash va firibgarliklarni oldini olishda muhim vosita sifatida chiqadi. Adabiyotlar sharhida keltirilgan ilmiy ishlar va tavsiyalar bu sohada yuzaga kelgan tendensiyalarni yanada yaxshilash uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Xususiy kapitalni baholashda risklarni boshqarish: Xususiy kapitalni aniq baholash uchun risklarni to‘g‘ri hisobga olish zarur.

2. Audit jarayonlarini raqamlashtirish: Xususiy kapitalning to‘g‘ri aks ettirilishi va audit jarayonining samaradorligini oshirish uchun raqamli audit va sun‘iy intellektni integratsiya qilishni kengaytirish zarur.

3. Xalqaro me’yorlarga moslashish: Xususiy kapitalni boshqarish va audit qilishda xalqaro standartlarga moslashish jarayonini yanada rivojlantirish zarur. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) va audit standartlariga moslashish korxonalarga global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

4. Xususiy kapital elementlarini hisobga olishda o‘zgarishlarni muntazam ravishda nazorat qilish: Xususiy kapitalni shakllantirish va uning harakati to‘g‘risidagi axborotlarni muntazam ravishda nazorat qilish va audit qilish zarur. Ustav kapitali, qo‘silgan kapital va zaxira kapitalining holati va harakati bo‘yicha tahlilni muntazam ravishda amalga oshirish, audit tizimini yaxshilash va kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

5. Shaffoflikni oshirish: Xususiy kapitalning shakllanishi va uning harakati bo‘yicha axborotlarning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, investorlar va kreditoryarlar uchun ishonchli moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etish zarur. Buning uchun tashkilotlar o‘zlarining moliyaviy hisobotlarida barcha xususiy kapital elementlarini aniq aks ettirishlari lozim. Bunda, qonunchilikka mos ravishda, yangi metodologiyalarni qo’llash va auditni takomillashtirish muhimdir.

6. Audit jarayonlarini mustahkamlash va xatoliklar va firibgarliklarni oldini olish: Audit jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun xatoliklar va firibgarliklarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Auditorlar auditni amalga oshirishda yangi metodologiyalar va texnologiyalarni qo’llashga e’tibor qaratishlari, shuningdek, kompaniyaning moliyaviy holatini aniq baholashlari zarur.

Shu tarzda, xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish orqali nafaqat kompaniyaning moliyaviy holatini yaxshilash, balki uning xalqaro moliyaviy tizimlarga moslashishini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Buxgalteriya hisobi (matn) 2-qism darslik / M.B. Kalonov, X.A. Ortikov, 2022-yil
2. Smith, J., & Jones, M. (2011). The Complexity of Private Equity Valuation: Analyzing the Gap Between Expected and Actual Values. Journal of Private Equity, 15(4), 22-30.
3. Harris, J. (2008). Valuation and Risk Assessment in Private Equity: A Comprehensive Analysis. International Journal of Financial Management, 13(2), 45-57.
4. Gray, I., & Manson, S. (2012). International Audit Standards: Adapting to Global Challenges. International Journal of Auditing, 16(1), 5-19.
5. Brown, L., & Wilson, H. (2016). Digital Auditing and Artificial Intelligence in Financial Audits. Journal of Financial Technology, 5(3), 75-89.

6. Bryant, J., & Barbour, L. (2017). Audit Compliance and Risk Analysis in Private Equity Firms. *Journal of Auditing and Financial Reporting*, 11(4), 12-25.
7. OECD (2017). Improving Private Equity Management and Auditing Practices: Global Recommendations. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Paris, France.
8. Buxgalteriya hisobi to‘g’risida O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 19-modda. (2020).
9. Xususiy Kapitalni Hisobga Olish va Auditni Takomillashtirish (2021). O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi metodikasi. 21-son BHMS.
10. Ustav Kapitali, Qo‘silgan Kapital va Zaxira Kapitali Hisobi (2022). O‘zbekiston Respublikasi Normativ-Huquqiy Hujjatlar.